



HUDUDLARDA RAG'BATLANTIRUVCHI SOLIQ IMTIYOZLARI SAMARADORLIGINI BAHOLASH

Abdurahmonov Baxriddin

Termiz davlat universiteti

ORCID: 0009-0003-4943-9954

bahriddin@tersu.uz

Annotatsiya. Maqolada hududlarda rag'batlantiruvchi soliq imtiyozlari samaradorligini baholashning mavjud metodikalari tahlil qilinib, ularning afzalliklari va kamchiliklari aniqlangan. Rag'batlantiruvchi soliq imtiyozlari samaradorligini baholash budjet daromadlaridagi yo'qotishlar bilan davlat va soliq to'lovchilar uchun yuzaga keladigan iqtisodiy foydalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlashga, shuningdek imtiyozni uzaytirish, tuzatish yoki bekor qilish bo'yicha qarorlar qabul qilishga yo'naltirilganligi asoslab berilgan. Soliq imtiyozlari samaradorligini baholash byudjet, iqtisodiy va ijtimoiy mezonlar asosida amalga oshirilishi hamda baholash jarayoni bosqichma-bosqich olib borilishi lozimligi ko'rsatib o'tilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, integral koeffitsiyentga asoslangan va asosiy samaradorlik mezonlarini qamrab oluvchi baholash metodikasi taklif etilib, u mahalliy darajada soliq imtiyozlarining budjet, iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlarini kompleks baholash hamda asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: rag'batlantiruvchi soliq imtiyozlari, samaradorlikni baholash, mezonlar, integral ko'rsatkich, budjet daromadlaridagi yo'qotishlar, soliq ma'murchiligi, algoritm, budjet daromadlari.

ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ НАЛОГОВЫХ ЛЬГОТ В РЕГИОНАХ

Абдурахмонов Бахиддин

Термезский государственный университет

Аннотация. В статье проанализированы существующие методики оценки эффективности стимулирующих налоговых льгот в регионах, а также выявлены их преимущества и недостатки. Обосновано, что оценка эффективности стимулирующих налоговых льгот направлена на определение взаимосвязи между потерями доходов бюджета и экономическими выгодами, возникающими для государства и налогоплательщиков, а также на принятие решений о продлении, корректировке или отмене льготы. Показано, что оценка эффективности налоговых льгот должна осуществляться на основе бюджетных, экономических и социальных критериев, а сам процесс оценки должен проводиться поэтапно. По результатам исследования предложена методика оценки, основанная на интегральном коэффициенте и охватывающая основные критерии эффективности. Данная методика позволяет комплексно оценивать бюджетные, экономические и социальные последствия налоговых льгот на местном уровне, а также принимать обоснованные управленческие решения.

Ключевые слова: стимулирующие налоговые льготы, оценка эффективности, критерии, интегральный показатель, потери доходов бюджета, налоговое администрирование, алгоритм, доходы бюджета.

EVALUATION OF THE EFFECTIVENESS OF INCENTIVE TAX BENEFITS IN THE REGIONS

Abdurahmonov Bakhiddin

Termez State University

Abstract. *The article analyzes existing methodologies for assessing the effectiveness of incentive tax benefits in regions and identifies their advantages and disadvantages. It is substantiated that the assessment of the effectiveness of incentive tax benefits is aimed at determining the correlation between losses in budget revenues and the economic benefits arising for the state and taxpayers, as well as making decisions to extend, adjust, or cancel the benefit. It is demonstrated that the assessment of tax benefit effectiveness should be carried out based on budgetary, economic, and social criteria, and the assessment process should be conducted stage-by-stage. Based on the research results, an assessment methodology based on an integral coefficient and covering the main efficiency criteria is proposed. This allows for a comprehensive assessment of the budgetary, economic, and social consequences of tax benefits at the local level, as well as making well-grounded management decisions.*

Keywords: *incentive tax benefits, efficiency assessment, criteria, integral indicator, losses in budget revenues, tax administration, algorithm, budget revenues.*

Kirish.

So'nggi yillarda hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirish, investitsion muhitni yaxshilash va ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish jarayonlarida soliq imtiyozlari davlat moliyaviy siyosatining muhim vositalaridan biri sifatida keng qo'llanilmoqda. Ayniqsa, rag'batlantiruvchi soliq imtiyozlari hududiy darajada tadbirkorlik faolligini oshirish, investitsiyalarni jalb etish, yangi ish o'rinlarini yaratish hamda soliq bazasini kengaytirishga xizmat qiluvchi samarali fiskal instrument sifatida namoyon bo'lmoqda.

Mamlakatimizda investitsion muhitni yaxshilash va iqtisodiy o'sishni ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi PF-5468-son Farmoni bilan belgilab berilgan soliq siyosatining yangi konseptual yo'nalishlari hamda 2019-yil 30-dekabrda O'RQ-599-son Qonuni asosida yangi tahrirda qabul qilingan Soliq kodeksi hududlarda rag'batlantiruvchi soliq imtiyozlarini qo'llash va ularning samaradorligini oshirishning mustahkam huquqiy poydevorini yaratib berdi (Qonun, 2019; Farmon, 2018).

Biroq global iqtisodiy noaniqliklar, byudjet resurslarining cheklanganligi va davlat moliyasiga bo'lgan yuklamaning ortib borishi sharoitida soliq imtiyozlarini joriy etish va qo'llash masalasiga alohida ehtiyotkorlik bilan yondashish zarurati yuzaga kelmoqda. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, soliq imtiyozlari qisqa muddatli davrda byudjet daromadlarining kamayishiga olib kelishi mumkin, ularning ijobiy iqtisodiy va ijtimoiy samarasi esa ko'p hollarda vaqt o'tishi bilan namoyon bo'ladi. Shu bois soliq imtiyozlarining haqiqiy natijadorligini aniqlash, ya'ni byudjet daromadlaridagi yo'qotishlar bilan ularning evaziga olinadigan iqtisodiy va ijtimoiy foydalarni taqqoslash dolzarb ilmiy-amaliy muammolardan biri hisoblanadi.

Hududlarda soliq imtiyozlari samaradorligini baholash masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan hududiy darajada soliq imtiyozlari iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga moslashtiriladi, mahalliy byudjetlarning daromad bazasi shakllanadi va aholi farovonligiga bevosita ta'sir ko'rsatiladi. Shu bilan birga, mavjud amaliyotda soliq imtiyozlari samaradorligini baholash bo'yicha yagona metodik yondashuvning yo'qligi, baholash mezonlari va ko'rsatkichlarining turlicha qo'llanilishi asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilishni murakkablashtirmoqda.

Mazkur holatlar hududiy darajada rag'batlantiruvchi soliq imtiyozlari samaradorligini kompleks, tizimli va ko'p mezonli yondashuv asosida baholash zaruratini yuzaga keltiradi. Ayniqsa, byudjet, iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlikni birgalikda hisobga oluvchi integral

baholash mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi.

Bugungi kunda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va investitsion jozibadorlikni oshirishda soliq mexanizmlaridan samarali foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Soliq imtiyozlari davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solishning muhim vositasi bo'lsa-da, ularning samaradorligini baholash masalalari iqtisodchi olimlar tomonidan turlicha talqin qilinadi. Mazkur yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlarni o'rganish natijasida ularni mazmunan bir necha guruhlariga ajratish mumkin.

Ilmiy ishlarning birinchi guruhi soliq imtiyozlari va preferensiyalarining iqtisodiy mohiyati hamda ularning fiskal siyosatdagi o'rnini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotchilar soliq preferensiyalarini iqtisodiy beqarorlik sharoitida fiskal tartibga solishning muhim instrumenti sifatida baholaydilar (Berlin, 2016; Tyutyuryukov, 2009). Shu bilan birga, ushbu guruh mualliflari soliq imtiyozlarining maqsadga muvofiqligi va samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilib, ularni qo'llashda ehtiyotkorlik va chuqur tahlil zarurligini ta'kidlaydilar (Igonina, 2014; 2016; Panskov, 2012). Ular soliq imtiyozlari mexanizmi turlicha bo'lishiga qaramay, yagona maqsadga xizmat qilishi lozimligiga e'tibor qaratadilar.

Ikkinchi guruh mualliflari soliq imtiyozlarining investitsion va innovatsion faoliyatni rag'batlantirishdagi rolini tadqiq etganlar. Ushbu olimlar soliq siyosatining investitsion tarkibiy qismini kuchaytirish va soliq qonunchiligini shakllantirishda tizimli yondashuvni qo'llash zarurligini asoslaydilar (Mamonova, 2012; 2008). Xususan, innovatsion faoliyatni rag'batlantirishda soliq imtiyozlarining samaradorligi yuqori ekanligi, vaqtinchalik investitsion soliq imtiyozlari (masalan, bonusli amortizatsiya) iqtisodiy o'sishga sezilarli turtki berishi empirik tahlillar asosida isbotlangan (Soboleva, 2014; House and Shapiro, 2008).

Uchinchi guruh tadqiqotchilari rivojlanayotgan mamlakatlar sharoitida biznesni soliq orqali rag'batlantirishning xatarlari va afzalliklarini xalqaro tajriba misolida o'rganganlar (Bird and Zoland, 2008; Klemm, 2010). Mualliflar korporativ soliq sohasidagi o'zgarishlarni tahlil qilib, soliq imtiyozlari to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda muhim omil ekanligini, biroq bu jarayon "zararli soliq raqobati" effektini keltirib chiqarmasligi lozimligini qayd etadilar (Abbas and Klemm, 2013; Girma et al., 2008; Zee et al., 2002). Ushbu tadqiqotlarda rivojlanayotgan mamlakatlar siyosatchilari uchun biznes investitsiyalarini rag'batlantirish bo'yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqilgan.

To'rtinchi guruh mualliflari bevosita hududiy soliq siyosati samaradorligini baholash va soliq salohiyatini mustahkamlash masalalariga e'tibor qaratadilar (Igonina, 2012; Aliev et al., 2014; Aliev et al., 2015). Ushbu ishlarda mintaqalarning byudjet-soliq siyosati samaradorligini baholashning metodologik yondashuvlari, soliq imtiyozlarining "soliq xarajatlari" va ularni qoplash masalalari tahlil qilingan (Musaeva et al., 2015a; Musaeva et al., 2015b). Tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, hududiy soliq salohiyatini mustahkamlash barqaror rivojlanishning asosiy omili bo'lib, fiskal federalizm sharoitida soliqni tartibga solish vositalarining samaradorligini oshirishni talab etadi (Fiskal federalizm, 2015).

Shunday qilib, adabiyotlar sharhi soliq imtiyozlari samaradorligini baholash bo'yicha ko'plab yondashuvlar mavjudligini ko'rsatadi. Biroq, mavjud tadqiqotlarda asosan absolyut ko'rsatkichlarga urg'u berilgan bo'lib, hududiy darajada rag'batlantiruvchi soliq imtiyozlarining byudjet, iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini yaxlit qamrab oluvchi hamda dinamik o'zgarishlarni hisobga oluvchi yagona integral baholash metodikasi to'liq shakllantirilmagan. Bu esa mazkur yo'nalishda chuqur tadqiqotlar olib borish zaruratini asoslaydi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda hududiy darajada rag'batlantiruvchi soliq imtiyozlari samaradorligini baholashda kompleks va ko'p mezonli yondashuv qo'llanildi. Nazariy tahlilda ilmiy

abstraksiyalash, tahlil va sintez usullaridan foydalanildi. Amaliy bosqichda iqtisodiy-statistik usullar, jumladan taqqoslash, guruhlash, dinamik qatorlar va nisbiy ko'rsatkichlar tahlili amalga oshirildi. Soliq imtiyozlari samaradorligi byudjet, iqtisodiy va ijtimoiy mezonlar asosida baholanib, inflyatsiya ta'sirini bartaraf etish maqsadida YaHM indeks-deflyatoridan foydalanildi. Hisob-kitoblar natijasida integral ko'rsatkich aniqlanib, uning asosida soliq imtiyozlarini davom ettirish, tuzatish yoki bekor qilish bo'yicha xulosalar ishlab chiqildi. Tadqiqotning axborot bazasini rasmiy statistik va normativ-huquqiy manbalar tashkil etdi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlash va tarkibiy o'zgarishlarni chuqurlashtirish vazifalari, global iqtisodiy noaniqliklar fonida yuzaga kelayotgan byudjet taqchilligi sharoitida davlat daromadlarini safarbar qilish va xarajatlarni optimallashtirishning alohida ahamiyatga ega ekanligini belgilab bermoqda. Bu holat milliy iqtisodiyotda qo'llanilayotgan rag'batlantiruvchi soliq imtiyozlari samaradorligini baholash va "soliq xarajatlari"ni tahlil qilish masalasining dolzarbligini yanada kuchaytiradi.

Rag'batlantiruvchi soliq imtiyozlari optimal va manzilli qo'llanilgan taqdirda, investitsion faollik va iqtisodiy o'sishning samarali drayveri (katalizatori) bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shu bilan birga, ularni keng ko'lamda va chuqur tahlilsiz qo'llash qisqa va o'rta muddatli istiqbolda davlat byudjeti daromadlarining salmoqli darajada qisqarishiga olib kelishi ehtimoli yuqori.

Xususan, O'zbekistonda so'nggi yillarda taqdim etilgan soliq va bojxona imtiyozlari natijasida byudjetga tushmay qolgan mablag'lar hajmi qariyb 50 trillion so'mni tashkil etmoqda (masalan, ayrim yillarda bu ko'rsatkich YaIMga nisbatan sezilarli foizni tashkil qilgan), bunda eng katta ulush qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) va foyda solig'i bo'yicha imtiyozlarga to'g'ri keladi.

Shundan kelib chiqib, soliq imtiyozlarini qo'llashda ehtiyotkorlik va puxta yondashuv zarur. Bu boradagi optimal qarorlar, bir tomondan, eng samarali soliq imtiyozlarini taqdim etish, ikkinchi tomondan esa amalda mavjud bo'lgan imtiyozlarning iqtisodiy asoslanganlik darajasini tahlil qilish bilan, shuningdek ularni qo'llashning dastlabki bosqichida byudjet daromadlaridagi yo'qotishlarni qoplash imkonini beradigan soliq ma'murchiligini takomillashtirish bilan bog'liqdir (Berlin, 2016; Fiskal federalizm, 2015).

O'zbekiston soliq amaliyotida mahalliy davlat hokimiyati organlariga (Xalq deputatlari Kengashlariga) soliqqa tortish sohasida berilgan vakolatlarga quyidagilar kiradi:

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan chegaralar doirasida ayrim soliq turlari (xususan, mol-mulk va yer soliqlari) bo'yicha soliq stavkalariga aniqlashtiruvchi koeffitsiyentlarni joriy etish;

mahalliy byudjetga tushadigan soliqlar bo'yicha to'lash muddatlarini o'zgartirish (soliq ta'tillari berish yoki bo'lib-bo'lib to'lash) tartibini qo'llash;

hududning iqtisodiy rivojlanish xususiyatlaridan kelib chiqib, soliq bazasini aniqlashda hududiy zonalarini tasdiqlash;

mahalliy soliqlar va yig'imlar yuzasidan qo'shimcha soliq imtiyozlarini joriy etish.

Respublika darajasidagi (Soliq kodeksi va Prezident farmonlari bilan o'rnatilgan) soliq imtiyozlari to'g'ridan-to'g'ri amal qiladi va ularning ro'yxati mahalliy Kengashlarning qarorlarida takrorlanishi talab etilmaydi. Mahalliy Kengashlar o'z hududlarida ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatdan kelib chiqib, faqat mahalliy byudjetga birlashtirilgan soliqlar doirasida mustaqil ravishda imtiyozlar berish huquqiga egadirlar.

Soliq imtiyozlarining tarkibi, ularni qo'llash sohasi va taqdim etish shartlari hech qanday normativ-huquqiy hujjatlar bilan qat'iy cheklanmagan. Shu sababli, soliq imtiyozlaridan optimal foydalanishni ta'minlash uchun ularning samaradorligini baholashning iqtisodiy jihatdan asoslangan metodlarini ishlab chiqish zarur hisoblanadi.

Soliq imtiyozlari samaradorligini baholash samaradorligini belgilovchi asosiy shartlar

quyidagilardan iborat:

mahalliy darajada soliq imtiyozlari samaradorligini baholash majburiyati yuklatilishi lozim bo'lgan davlat organlari ro'yxatini belgilash;

mazkur organlar uchun soliq imtiyozlariga taalluqli miqdoriy ko'rsatkichlar bo'yicha axborot bazasining mavjudligi va ochiqqligi;

soliq imtiyozlari samaradorligini maksimal darajada aks ettiruvchi hamda ularning me'yoriy qiymatlarini ifodalovchi asoslangan ko'rsatkichlar tizimining mavjudligi;

baholashni o'tkazish tartibi, uning davriyligi hamda baholash natijalariga ko'ra chora-tadbirlar qabul qilish algoritmini tartibga soluvchi normativ-huquqiy bazani shakllantirish (Aliev et al., 2014).

Soliq imtiyozlari samaradorligini baholash parametrlarini belgilashda, imtiyozning soliq elementi sifatidagi xususiyatlari uning qo'llanilish maqsadlari bilan belgilanadigan ko'pma'noliligi bilan tavsiflanishini inobatga olish zarur (Bird and Zoland, 2008; Klemm, 2010).

Xususan, soliq amaliyotida qo'llaniladigan ijtimoiy yo'naltirilgan imtiyozlar o'z mohiyatiga ko'ra byudjet uchun qoplanmaydigan yo'qotishlarni anglatadi, chunki ular ijtimoiy xarakterdagi maqsadlarga erishishga qaratilgan. Ularni taqdim etish imkoniyatlari, umumiy hajmi hamda qaysi soliq to'lovchilar toifalariga mo'ljallanganligi, asosan, davlatning muayyan holatda "qurbon qilishga" tayyor bo'lgan moliyaviy resurslari hajmi bilan belgilanadi. Bunday imtiyozlarga, jumladan, jismoniy shaxslar daromad solig'i bo'yicha ijtimoiy va mulkiy chegirmalar, shuningdek yer solig'i, mol-mulk solig'i bo'yicha ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi toifalari uchun beriladigan imtiyozlar kiradi (Aliev et al., 2015).

Rag'batlantiruvchi xarakterga ega bo'lgan soliq imtiyozlari esa mutlaqo boshqa tabiatga ega. Ularni joriy etishdan ko'zlangan asosiy maqsad – xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini muayyan davrda davlat uchun eng ustuvor hisoblangan yo'nalishlarda rivojlantirishga yo'naltirishdan iborat (Abbas and Klemm, 2013; Aliev et al., 2014). Rag'batlantiruvchi imtiyozlar ijtimoiy imtiyozlardan farqli o'laroq, odatda investitsion yoki innovatsion xarakterga ega bo'lib, ma'lum vaqt oralig'ini nazarda tutadi hamda soliqqa tortish bazasining keyinchalik kengayishi, shu asosda barcha darajadagi byudjetlarning daromadlar bilan to'ldirilishi, ish o'rinlari sonining ko'payishi, foydali qazilmalarni qazib olish hajmining oshishi, ishlab chiqarishning energiya samaradorligi yuksalishi kabi real va sezilarli natijalarni ta'minlashni ko'zda tutadi (Girma et al., 2008).

Bunday imtiyozlarning mavjudligi davlat va soliq to'lovchi manfaatlarini maksimal darajada uyg'unlashtirish imkonini beradi, bu esa, o'z navbatida, soliqqa tortishning fundamental tamoyillarini amalga oshirishga xizmat qiluvchi muhim omillardan biri hisoblanadi.


Rag'batlantiruvchi soliq imtiyozlarini qo'llash mexanizmlari nihoyatda xilma-xil bo'lishi mumkin: pasaytirilgan soliq stavkalarini joriy etish, soliqqa tortish obyektni qisqartirish, soliq bazasining bir qismini soliqqa tortishdan chiqarish, oshiruvchi (rag'batlantiruvchi) koeffitsiyentlardan foydalanish va boshqalar (Tyutyuryukov, 2009). Bunga investitsiya loyihalarini amalga oshirayotgan tashkilotlar uchun yoki investitsion maqsadlarda kreditlar ajratuvchi kredit tashkilotlari uchun belgilangan soliq imtiyozlari misol bo'la oladi (Soboleva, 2014; Zee et al., 2002).

Rag'batlantiruvchi imtiyozlarni joriy etish va ulardan foydalanish iqtisodiy o'sishni ta'minlash, ishlab chiqarishni rivojlantirish va modernizatsiya qilish, xalq xo'jaligining tarmoqlar tarkibini takomillashtirish, zarur infratuzilma obyektlarini yaratishga qaratilgan (Igonina, 2014; Musaeva et al., 2015a). Mavjud soliq imtiyozlari samaradorligini aniqlash bo'yicha tahliliy hisob-kitoblar yagona metodikaga asoslanmaganligi sababli tizimli va unifikatsiyalashgan xarakterga ega emas. O'zbekistonda soliq imtiyozlarining umumiy soni anchayin ko'p bo'lishiga qaramay, investitsion faollikning o'sishi hanuzgacha qoniqarli darajada emas (Mamonova, 2008; Mamonova, 2012; Panskov, 2012; Musaeva et al., 2015b).

Rag'batlantiruvchi soliq imtiyozlari samaradorligini baholash, birinchidan, byudjet

daromadlaridagi yo'qotishlar summalari bilan ular natijasida davlat va soliq to'lovchilar uchun yuzaga keladigan real iqtisodiy foydalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlashga, ikkinchidan, mazkur bog'liqlik darajasining korrelyatsiyasini belgilashga, uchinchidan esa o'tkazilgan tahlil natijalaridan kelib chiqib imtiyozni uzaytirish (prolongatsiya qilish), uni tuzatish yoki bekor qilish bo'yicha qarorlar qabul qilishga yo'naltirilishi lozim.

Umuman olganda, soliq imtiyozlari samaradorligini baholash, odatda, uchta mezon asosida amalga oshiriladi: byudjet, iqtisodiy va ijtimoiy mezonlar. Baholash obyektlari sifatida mos ravishda soliq imtiyozlarini taqdim etish natijasida yuzaga keladigan byudjet, iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlar qaraladi. Mazkur yondashuv davlat va soliq to'lovchilar manfaatlarini maksimal darajada inobatga olish imkonini beradi. Samaradorlik mezonlarining mazmuni hamda ularni baholash parametrlari 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Soliq imtiyozlari samaradorligi mezonlari va ularni baholash parametrlari.


Manba: muallif tomonidan tuzilgan.

Mavjud moliyaviy cheklovlar sharoitida rag'batlantiruvchi soliq mexanizmlarining samaradorligini barcha mezonlar bo'yicha baholash alohida ahamiyat kasb etadi, chunki rag'batlantiruvchi imtiyozlarni baholash metodikasi nafaqat hudud byudjetining fiskal manfaatlarini, balki xo'jalik yurituvchi subyektlar hamda jismoniy shaxslarning manfaatlarini ham hisobga olishi zarur. Soliq imtiyozlarini baholash yo'nalishining konseptual modeli 2-rasmda aks ettirilgan.

Hududiy darajadagi rag'batlantiruvchi soliq imtiyozlari samaradorligini baholashni bir necha bosqichda amalga oshirish lozim:

1. Byudjet, iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlik koeffitsiyentlarini hisoblash;
2. Soliq imtiyozining umumiy samaradorligini aks ettiruvchi integral koeffitsiyentni aniqlash;

3. O'tkazilgan hisob-kitoblarga asoslanib imtiyozni joriy etish yoki undan keyinchalik foydalanish maqsadga muvofiqligi to'g'risida qaror qabul qilish.



2-rasm. Hududiy darajada rag'batlantiruvchi soliq imtiyozlarini baholashning konseptual modeli.

Manba: muallif tomonidan tuzilgan.

Soliq imtiyozining byudjet samaradorligini baholash byudjetga tushumlar o'sishi bilan byudjet daromadlaridagi yo'qotishlar nisbatini aniqlashni nazarda tutadi. Muammo shundan iboratki, imtiyozni joriy etishdan olinadigan samara darhol namoyon bo'lmaydi, bu esa muayyan soliq imtiyozining byudjet samaradorligini bir necha soliq davrlari davomida dinamikada kuzatib borishni talab etadi. Shu sababli, mazkur ko'rsatkichni hisoblashda uning qiymatini inflyatsiya darajasiga mos ravishda tuzatish zarur bo'lib, bu ma'lumotlarning o'zaro taqqoslanishini ta'minlaydi.

Byudjet samaradorligi mezoni sifatida byudjet samaradorligi koeffitsiyentidan foydalanish taklif etiladi. Mazkur koeffitsiyent tahlil qilinayotgan davrda muayyan soliq bo'yicha byudjetga tushumlar hajmining o'tgan yilga nisbatan o'zgarishini (yalpi hududiy mahsulot – YaHM indeks-deflyatoriga tuzatilgan holda) tahlil qilinayotgan yilda soliq imtiyozi taqdim etilishi natijasida yuzaga kelgan byudjet daromadlaridagi yo'qotishlarga nisbatini aks ettiradi:

$$K_{bs} = \frac{(ST_j - ST_{j-1}) \times I_{def} \times 100}{BY_j}, \quad (1)$$

bu yerda:

K_{bs} – byudjet samaradorligi koeffitsiyenti;

ST_j – soliq tushumlari (tadqiq etilayotgan yildagi);

ST_{j-1} – soliq tushumlari (oldingi yildagi);

I_{def} – YAHM indeks-deflyatori (tahlil qilinayotgan yil uchun);

BY_j – byudjet yo'qotishlari (soliq imtiyozi berilishi natijasida yuzaga kelgan).

Tahlil jarayonida nafaqat hisoblangan nisbatning o'zi, balki uning dinamikasi ham muhim ahamiyatga ega. Soliq imtiyozi amal qilgan davr mobaynida ushbu ko'rsatkichning ijobiy tomonga o'zgarib borishi imtiyozni joriy etish natijasida erishilgan samaradorlikning oshib borayotganini ifodalashi lozim. Bu holat byudjet samaradorligi koeffitsiyenti bo'yicha ballik bahoni shakllantirishda inobatga olinadi. Ijobiy dinamikaning mavjud emasligi esa soliq imtiyozining samarasizligidan dalolat beradi.

Byudjet samaradorligi koeffitsiyentiga quyidagi shartlarga ko'ra 0; 0,5 yoki 1 ball beriladi:

agar $K_{bs} > 1$ bo'lib, shu bilan birga ijobiy dinamikaga ega bo'lsa, koeffitsiyentga 1 ball beriladi (har bir omil uchun 0,5 balldan);

agar $K_{bs} > 1$, ammo salbiy dinamikaga ega bo'lsa, koeffitsiyentga 0,5 ball beriladi;

agar $K_{bs} < 1$, biroq ijobiy dinamikaga ega bo'lsa, koeffitsiyentga 0,5 ball beriladi;

agar $K_{bs} < 1$ va salbiy dinamikaga ega bo'lsa, koeffitsiyentga 0 ball beriladi.

Iqtisodiy samaradorlik mezonini sifatida soliq imtiyozi berilgan soliq to'lovchilar toifasining moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tavsiflovchi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar – ishlab chiqarish hajmi (tushum), asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar, sotuvlar rentabelligi kabi ko'rsatkichlarning o'sish sur'atlarini aynan shu soliq bo'yicha imtiyozga ega bo'lmagan boshqa soliq to'lovchilar bilan taqqoslash taklif etiladi. Qaysi soliq turi bo'yicha soliq imtiyozining iqtisodiy samaradorligi hisoblanishiga qarab, ko'rsatkichlar tarkibini mos ravishda o'zgartirish mumkin. Masalan, tashkilotlar mol-mulk solig'i bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarni, foyda solig'i bo'yicha esa yalpi foyda ko'rsatkichini inobatga olish maqsadga muvofiqdir.

Tanlab olingan ko'rsatkichlar bo'yicha o'sish sur'atlari hisoblab chiqilgach, ulardan har biriga 0 dan 1 gacha bo'lgan qiymat quyidagi qoidalarga muvofiq ravishda belgilanadi:

agar imtiyozdan foydalanuvchi soliq to'lovchilar guruhi bo'yicha hisoblangan ko'rsatkichning o'sish sur'ati ushbu soliq bo'yicha boshqa soliq to'lovchilar guruhidagi o'sish sur'atidan yuqori bo'lsa, mazkur ko'rsatkichga 1 qiymati beriladi;

agar imtiyozdan foydalanuvchi soliq to'lovchilar guruhi bo'yicha hisoblangan ko'rsatkichning o'sish sur'ati ushbu soliq bo'yicha boshqa soliq to'lovchilar guruhidagi o'sish sur'atidan past bo'lsa, mazkur ko'rsatkichga 0 qiymati beriladi.

Shundan so'ng, uchta tanlangan ko'rsatkich bo'yicha berilgan qiymatlardan kelib chiqib, iqtisodiy samaradorlikning umumiy koeffitsiyentini hisoblash taklif etiladi. Bunda, agar barcha ko'rsatkichlar teng darajada reprezentativ deb e'tirof etilsa, oddiy arifmetik o'rtacha, agar esa ko'rsatkichlarni ularning ahamiyat darajasiga ko'ra tasniflash imkoniyati mavjud bo'lsa, og'irliklangan arifmetik o'rtacha usulidan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Iqtisodiy samaradorlikning umumiy koeffitsiyenti quyidagi usullar orqali hisoblanadi.

Oddiy arifmetik o'rtacha bo'yicha:

$$K_{is} = \frac{\sum_{i=1}^n B_i}{n} \quad (2)$$

bu yerda:

B_i – tahlil qilinayotgan ko'rsatkichga berilgan ball (o'sish bo'lsa 1, bo'lmasa 0);

n – ko'rsatkichlar soni.

Tortilgan o'rtacha arifmetik qiymat uchun:

$$K_{is} = \sum_{i=1}^n B_i \times O_i \quad (3)$$

bu yerda:

B_i – tahlil qilinayotgan ko'rsatkichga berilgan ball;

n – ko'rsatkichlar soni;

O_i – ko'rsatkichining og'irlik (ahamiyat) darajasi.

Soliq imtiyozining ijtimoiy samaradorligi mezonini baholash iqtisodiy samaradorlikni tahlil qilishga o'xshash tarzda amalga oshiriladi. Ijtimoiy samaradorlikni aniqlashda imtiyozdan foydalanuvchi korxonalarda o'rtacha ish haqi va yaratilgan ish o'rinlari soni kabi ko'rsatkichlarning o'sish sur'atlari hudud bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlar bilan taqqoslanadi. Bunda ish haqi ko'rsatkichi qonunchilikda belgilangan eng kam ish haqi darajasini inobatga olgan holda indeksatsiya qilinishi lozim.

Keyingi bosqichda mazkur ko'rsatkichlarga yuqorida iqtisodiy samaradorlikni baholashda qo'llanilgan sxema asosida 0 dan 1 gacha bo'lgan qiymatlar beriladi, shundan so'ng

esa ijtimoiy samaradorlikning umumiy koeffitsiyenti oddiy yoki og'irliklangan arifmetik o'rtacha usuli orqali hisoblab chiqiladi.

Baholashning navbatdagi bosqichida har bir mezonning (byudjet, iqtisodiy va ijtimoiy) og'irligini hisobga olgan holda soliq imtiyozining integral samaradorlik ko'rsatkichi aniqlanadi.

Bizning fikrimizcha, samaradorlikning uchta mezon – byudjet, iqtisodiy va ijtimoiy mezonlarning mavjudligi muayyan soliq imtiyozini qo'llashdan olinadigan umumiy ta'sirni hisobga oluvchi integral koeffitsiyentni shakllantirishni taqozo etadi:

$$K_{int} = \sum_{i=1}^n K_i \times A_i \quad (4)$$

bu yerda:

K_{int} – mahalliy darajadagi rag'batlantiruvchi soliq imtiyozining integral samaradorlik koeffitsiyenti;

K_i – mos ravishda byudjet, iqtisodiy yoki ijtimoiy samaradorlik koeffitsiyenti;

A_i – mazkur yo'nalishning ahamiyat (signifikatsiya) koeffitsiyenti.

Har bir mezonning muayyan soliq imtiyoziga nisbatan korrelyatsiya darajasi sezilarli darajada farqlanadi, shu sababli ushbu holat ahamiyat koeffitsiyentlarini belgilash jarayonida albatta inobatga olinishi lozim. Eng yuqori darajadagi bog'liqlik, odatda, byudjet samaradorligi koeffitsiyentiga xos bo'ladi, chunki soliq imtiyozining mavjudligi bevosita byudjetga ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, davlat organlari ixtiyoridagi axborotlar asosida, imtiyozlardan foydalanuvchi soliq to'lovchilar soliq deklaratsiyalarida, odatda, byudjet daromadlaridagi yo'qotishlar miqdorini aks ettiradilar.

Soliq qonunchiligida belgilangan soliq siri tushunchasi mazkur holatda aniq soliq to'lovchilar to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor etishni taqiqlaydi, biroq ushbu ma'lumotlarni umumlashtirish va ularni umumdavlat manfaatlarini yo'lida tahliliy maqsadlarda qo'llashga to'sqinlik qilmaydi.

Iqtisodiy samaradorlik koeffitsiyenti bo'yicha bog'liqlik nisbatan kamroq darajada namoyon bo'ladi, chunki tushum, foyda, asosiy kapitalga investitsiyalar, rentabellik kabi ko'rsatkichlarning o'zgarishiga xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy-xo'jalik faoliyati xususiyatlarini aks ettiruvchi tashqi va ichki omillarning boshqa turlari ham ta'sir ko'rsatishi mumkin. Eng past darajadagi korrelyatsiya ijtimoiy samaradorlik mezonlarida kuzatiladi, shu bois ushbu mezonning ahamiyat (og'irlik) koeffitsiyenti ham eng kichik bo'ladi.

Taklif etilayotgan og'irlik (ahamiyat) koeffitsiyentlari quyidagicha belgilanadi:

0,6 – byudjet samaradorligi uchun;

0,3 – iqtisodiy samaradorlik uchun;

0,1 – ijtimoiy samaradorlik uchun.

Imtiyoz bo'yicha qaror qabul qilinishi lozim bo'lgan minimal nazorat vaqt oralig'i uch yilni tashkil etadi.

Qaror qabul qilish algoritmi soliq imtiyozining reytingiga bog'liq bo'ladi. Davlat hokimiyati organlari uchun uchta asosiy harakat varianti ajratiladi:

imtiyoz amal qilish muddatini uzaytirish (prolongatsiya qilish);

imtiyozni tuzatish (korrektirovka qilish);

imtiyozni bekor qilish.

Hisob-kitoblar natijasida, agar uchala mezon bo'yicha ham maksimal samaradorlikka erishilgan bo'lsa, rag'batlantiruvchi soliq imtiyozining integral koeffitsiyenti 1 ga teng bo'ladi. Shundan kelib chiqib, tavsiya etiladigan reyting shkalasi quyidagicha shakllantiriladi:

$1 \geq K_{int} \geq 0,7$ – yuqori reyting, imtiyozdan keyinchalik ham foydalanish maqsadga muvofiq;

$0,7 > K_{int} \geq 0,4$ – o'rtacha reyting, imtiyoz tuzatishni talab etadi;

$0,4 > K_{int} \geq 0$ – past reyting, imtiyoz bekor qilinishi lozim.

Hozirgi vaqtda ko'plab hududlar soliq imtiyozlari samaradorligini baholash bo'yicha o'z

metodikalariga ega bo'lib, ularning har biri mezonlar tizimini mustaqil ravishda shakllantiradi. Mazkur metodikalar qo'llaniladigan ko'rsatkichlar majmui, ularni hisoblash tartibi, me'yoriy qiymatlar, muayyan imtiyozlarni hisobga olish darajasi, integral ko'rsatkichning mavjudligi yoki mavjud emasligi kabi jihatlar bo'yicha bir-biridan farq qiladi. Hududlar va munitsipal tuzilmalarning aksariyati samaradorlik mezonlari tizimini absolyut va nisbiy ko'rsatkichlar asosida shakllantiradi.

1-jadval

Hududiy va mahalliy darajada byudjet samaradorligini baholashda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar

No	Ko'rsatkich turi	Formula (umumiy ko'rinish)	Iqtisodiy mazmuni
Absolyut ko'rsatkichlar			
1	Byudjet samaradorligi (absolyut)	$S_{abs} = ST_j - ST_{j-1} - \sum I_j$	Rejalashtirilgan va haqiqiy tushumlar o'rtasidagi farq
2	Soliq imtiyozlari bo'yicha yo'qotishlar (Soliq imtiyozlarining sof fiskal natijasi)	$S_{sof} = \sum ST_{tol} - \sum I$	To'langan soliqlar va imtiyozlar summasi o'rtasidagi farq
3	Imtiyoz hisobga olingan tushumlar/Rejaga nisbatan samaradorlik (Prognoz bajarilishi)	$S_{reja} = (ST_{haq} + ST_{qo'sh}) - ST_{reja}$	Imtiyozlar berilgan sharoitda byudjetga real tushum
Nisbiy ko'rsatkichlar			
4	Nisbiy byudjet samaradorligi	$K_{ns} = \frac{\Delta ST}{I}$	Tushumlar o'sishining yo'qotilgan daromadlarga nisbati
5	Imtiyoz qaytimi ko'effitsiyenti	$K_q = \frac{ST_{key}}{I_{old}}$	Imtiyozdan keyingi tushumlarning imtiyoz hajmiga nisbati
6	Byudjet yuklamasi indeksi	$K_{yuk} = \frac{I}{ST_{jami}}$	Imtiyozlar ulushining umumiy tushumlarga nisbati
7	Ekspert baholash ko'effitsiyenti	Ekspert ballari asosida	Imtiyozning fiskal ta'sirini ekspert bahosi
8	Konsolidatsiyalashgan baho	Kompleks indeks	Byudjet, iqtisodiy va ijtimoiy ta'sirlarning yig'ma bahosi

Manba: muallif tomonidan tuzilgan.

1-jadvalda turli mahalliy byudjetlar amaliyotida qo'llanilayotgan byudjet samaradorligi ko'effitsiyentlarining ayrim turlari keltirilgan.

Ayrim hududlarda nafaqat umumlashtirilgan mezonlar, balki innovatsion va investitsion faoliyat bilan shug'ullanuvchi, qishloq xo'jaligi, atrof-muhitni muhofaza qilish, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarida faoliyat yurituvchi soliq to'lovchilar uchun individual xarakterdagi mezonlar ham joriy etilishi mumkin.

Shu bilan birga, mavjud soliq imtiyozlari samaradorligini baholash metodikalarining tahlili shuni ko'rsatadiki, imtiyozni joriy etish yoki undan foydalanish zarurligi to'g'risida asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini beradigan yagona metodik yondashuvlar hanzgacha shakllantirilmagan. Mazkur holat soliq imtiyozlari samaradorligini baholashning umumiy va yagona metodologiyasini ishlab chiqish zaruratini belgilab bermoqda.

Xulosa va takliflar.

Ushbu ishda keltirilgan metodikaning afzalliklari, bizning fikrimizcha, quyidagilarda namoyon bo'ladi:

xarajatlarni ularni amalga oshirishdan olinadigan samara bilan o'zaro taqqoslashni aks ettirmaydigan, shu bois samarasiz hisoblangan absolyut ko'rsatkichlardan foydalanilmasligi;

ballarni hisoblashda soliq imtiyozini qo'llash natijasida yuzaga keladigan dinamik jarayonlar darajasini inobatga olish, ya'ni ortib boruvchi samaraning mavjud yoki mavjud emasligini aks ettirish;

baholash mezonlarining taqqoslash maqsadida foydalaniladigan ko'rsatkichlar bilan korrelyatsiyasini hisobga olish;

ko'rsatkichlarni hisoblash uchun zarur bo'lgan axborot bazasining mavjudligi;

hisob-kitoblarda indeks-deflyatordan foydalanish, bu esa natijalarni o'zaro taqqoslanadigan holga keltirish imkonini berishi;

tahlil qilinayotgan soliq imtiyozining samaradorligini barcha yo'nalishlar bo'yicha qamrab oluvchi integral ko'rsatkichning mavjudligi;

universal xarakterga egaligi, ya'ni hisoblash algoritmini o'zgartirmagan holda ham ko'rsatkichlar tarkibini, ham ularning og'irliklarini (ahamiyat darajasini) erkin tarzda o'zgartirish imkonini berishi.

Ishlab chiqilgan metodika hududiy va mahalliy darajada rag'batlantiruvchi soliq imtiyozlaridan foydalanish samaradorligini dinamikada baholash, byudjet tarkibi va tuzilmasiga, soliq to'lovchilarning iqtisodiy ko'rsatkichlariga hamda hududning muhim ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi eng muhim mezonlarni hisobga olish imkonini beradi.

Yakuniy integral ko'rsatkichning mavjudligi qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat organlariga mavjud soliq imtiyozlari bo'yicha asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish, shuningdek submilliy darajada investitsion va innovatsion rivojlanish yo'nalishini izchil qo'llab-quvvatlash imkonini yaratadi.

Adabiyotlar/Jumepamypa/References:

Abbas, S.M.A. and Klemm, A. (2013) 'Partial race to the bottom: Corporate tax developments in emerging and developing economies', *International Tax and Public Finance*, 20, pp. 596–617.

Aliev, B.Kh., Musaeva, Kh.M. and Suleymanov, M.M. (2014) 'Methodological approaches towards assessing the efficacy of a region's budgetary-taxation policy', *Asian Social Science*, 10(24), p. 35.

Aliev, B.Kh. et al. (2015) 'Priority guidelines for strengthening regional taxable capacity as a factor of sustainable development of the territorial entities', *Mediterranean Journal of Social Sciences*, 6(5).

Берлин, С.И. (2016) 'Налоговые преференции как инструмент фискального регулирования в условиях нестабильности экономики', *Современная экономическая мысль*, 2, pp. 111–118.

Bird, R.M. and Zoland, E.M. (2008) 'Tax policy in emerging countries', *Environment and Planning: Government and Policy*, 26, pp. 73–86.

Fiskal federalizm (2015) Проблемы и перспективы развития. Москва: ЮНИТИ-ДАНА.

Girma, S., Görg, H. and Pisu, M. (2008) 'Exporting, linkages and productivity spillovers from foreign direct investment', *Canadian Journal of Economics*, 41, pp. 320–340.

House, C. and Shapiro, M. (2008) 'Temporary investment tax incentives: Theory with evidence from bonus depreciation', *American Economic Review*, 98, pp. 737–768.

Иголина, Л.Л. (2012) 'Методология оценки эффективности реализации налогового потенциала региона', *Региональная экономика. Юг России*, 13, pp. 380–390.

Иголина, Л.Л. (2014) 'Оценка эффективности бюджетно-налоговой политики: ретроспективный и целеориентированный подходы', Национальные интересы: приоритеты и безопасность, 28, pp. 2–10.

Иголина, Л.Л. (2016) 'Финансовое развитие и экономический рост', Вестник Финансового университета, 1(91), pp. 111–120.

Klemm, A. (2010) 'Causes, benefits, and risks of business tax incentives', *International Tax and Public Finance*, 17, pp. 315–336.

Мамонова, И.В. (2008) 'Инвестиционная составляющая налоговой политики Российской Федерации', *Налоги и финансовое право*, 10, pp. 269–275.

Мамонова, И.В. (2012) 'Оценка качества системного подхода к формированию налогового законодательства РФ', *Налоги и финансовое право*, 5, pp. 240–244.

Musaeva, Kh.M. et al. (2015a) 'Tax relieves: costs of their application in taxation and issues of the efficiency evaluation', *Asian Social Science*, 11(7).

Musaeva, Kh.M. et al. (2015b) 'Improvement of the efficiency of the instruments of tax regulation in the context of the development of fiscal federalism', *Ecology, Environment and Conservation Journal*, 21(Suppl.).

Пансков, В.Г. (2012) 'Налоговые льготы: целесообразность и эффективность', *Финансы*, 10, pp. 34–36.

Soboleva, G.V. (2014) 'Efficiency of tax incentives in stimulating innovation activity', *Экономика. Налоги. Право*, 3, pp. 84–88.

Тютюрюков, Н.Н. (2009) 'Налоговые льготы и преференции: цель – одна, а механизм – разный', *Налоговая политика и практика*, 10, pp. 18–23.

Zee, H., Stotsky, J. and Ley, E. (2002) 'Tax incentives for business investment', *World Development*, 30, pp. 1497–1516.